

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI PAREMALARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI (MATALLAR MISOLIDA)

Zayniddinova Irodaxon Botirjon qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

irodabotirjonovna9792@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20656745>

Annotatsiya. Tezisdagi o'zbek va ingliz tillaridagi matallar semantik va lingvomadaniy jihatdan chog'ishtiriladi. Matallar ekvivalentlik darajasiga ko'ra to'liq, qisman va ekvivalentsiz turlarga ajratiladi hamda ulardagi tafovutlarning milliy-madaniy asoslari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: parema, matal, chog'ishtirma tahlil, ekvivalentlik, lakunarlik, lingvomadaniyatshunoslik, milliy obrazlilik.

Аннотация. В тезисах сопоставляются поговорки узбекского и английского языков в семантическом и лингвокультурологическом аспектах. Поговорки делятся на полные, частичные и безэквивалентные единицы; раскрываются национально-культурные основы их различий.

Ключевые слова: паремия, поговорка, сопоставительный анализ, эквивалентность, лакунарность, лингвокультурология, национальная образность.

Annotation. The thesis compares sayings of the Uzbek and English languages in semantic and linguocultural terms. The sayings are classified into full, partial and non-equivalent units, and the national-cultural basis of their differences is revealed.

Keywords: paremia, saying, comparative analysis, equivalence, lacunarity, linguoculturology, national imagery.

Har bir matal xalq tajribasining bir lahzada tilga tushgan obrazli izi; aynan shu obrazlilik uni qiyosiy tahlil uchun ham qiziqarli, ham murakkab obyektga aylantiradi. O'zbek tilshunosligida maqol tugal hukmni, matal esa tugallanmagan, ko'chma ma'noli ifodani bildiradi. Biz o'zbek va ingliz matallarini qiyoslar ekanmiz, genetik jihatdan uzoq bu ikki tilda umuminsoniy tafakkur qayerda tutashib, milliy o'ziga xoslik qayerdan boshlanishini ko'rsatishni maqsad qildik. Mavjud qiyosiy ishlarda e'tibor ko'proq maqollarga qaratilgani¹ bois, biz ataylab kamroq o'rganilgan turni - matalni - tahlil markaziga qo'ydik va uni semantik hamda lingvomadaniy jihatdan chog'ishtirdik.

Avvalo, matal tushunchasini o'zimiz uchun aniqlashtirib olishni zarur deb bildik, zero o'zbek tilshunosligida u ko'pincha ibora (frazologizm) bilan chegaradosh hodisa sifatida qaraladi; bu birliklarning semantik tabiati Sh. Rahmatullayev ishlarida atroflicha yoritilgan². Bizning nazarimizda matalni maqoldan ajratib turadigan asosiy belgi didaktik xulosaning yo'qligi va obrazlilikning ustunligi; G. L. Permyakov ham matalni aynan tugallanmagan, obrazli paremiologik birlik sifatida ta'riflagan edi³. Shu an'anaga tayanib, biz matalni keng ma'noda

¹Qarang: Uralova O. P. Ingliz va o'zbek tillarida «oila» bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi: Filol. fan. b. cha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2021.


²Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

³Пермяков Г. Л. Основы структурной паремииологии. – Москва: Наука, 1988.

obrazli, tugallanmagan hukmli birlik (rus. поговорка, ingl. saying) sifatida olamiz va matal bilan ibora oralig'idagi birliklarni ham shartli ravishda shu doiraga kiritamiz.

Diqqatimizni tortgan bir jihat shuki, ingliz tilida maqol (proverb) va matal (saying) chegarasi o'zbek tilidagidek qat'iy emas, balki ko'proq funksional xususiyatga ega⁴. Tahlilda qiyosiy-chog'ishtirma, semantik va lingvomadaniy usullarni birgalikda qo'lladik. Materialni ishonchli manbalardan o'zbek matallarini "Hikmatnoma", ingliz matallarini Oksford maqollar lug'atidan tanladik va ularni A. V. Kuninning ekvivalentlik tasnifiga ko'ra to'liq, qisman hamda ekvivalentsiz guruhlarga ajratdik⁵.

Tahlilimiz matallarni mazmuniy mosligiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkinligini ko'rsatdi; bu guruhlarni xarakterli misollar bilan quyidagi infografikada (1-rasm) jamladik:



1-rasm. O'zbek va ingliz matallarining ekvivalentlik turlari (infografika)

Kuzatishimizcha, to'liq ekvivalentlik obraz ham, ma'no ham mos kelganda yuzaga keladi: *qo'y terisini yopingan bo'ri - a wolf in sheep's clothing, olovga moy quymoq - to add fuel to the fire*. Bunday matallarning obrazi milliy emas, umumiy bo'lgani ko'pincha xalqaro yoki diniy manbalardan har ikki tilga o'zlashgani uchun moslik to'liq bo'ladi⁶. Qisman ekvivalentlarda ma'no mushtarak bo'lsada, obraz milliy zaminga ko'ra o'zgaradi: *pashshadan fil yasamoq - to*

⁴Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004.

⁵Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996.

⁶Misollar manbalari bo'yicha qarang: Hikmatnoma. Ko'rsatilgan asar; The Oxford Dictionary of Proverbs. Ko'rsatilgan asar.

make a mountain out of a molehill, qo'y og'zidan cho'p olmagan - butter would not melt in his mouth. Bunga qovun tushirmoq matali ham kiradi: uning ma'nosi (xato qilib, noo'rin gap aytib qo'yish) inglizcha *to put one's foot in it* bilan mos, lekin obrazlar qovun va oyoq butunlay farqlanadi. *Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi* matalida esa o'zbekcha bo'ri obrazi o'rnida inglizcha *speak of the devil* muqobilida diniy-madaniy shayton obrazi turadi.

Ekvivalentsiz (lakunar) matallar har bir til olamining betakror qirralarini namoyon etadi. O'zbek tilidagi *tuya ko'rdingmi? yo'q* matali (biror narsani bilmaslikka, ko'rmaslikka olish) milliy obrazga tayangani uchun ingliz tilida unga teng matal muqobili yo'q; ingliz tilidagi *to carry coals to Newcastle* ifodasi esa ko'mir koni bilan mashhur Nyukasl shahri nomiga bog'langani bois o'zbek tilida bevosita muqobilga ega emas. Tahlilimiz ko'rsatadiki, sof lakunarlik nisbatan kam uchraydi va ko'proq milliy realiya yoki joy nomi bilan bog'langan birliklarda namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimiz nastijasida matallardagi obrazlar tasodifiy emasligini, har bir xalqning tarixiy turmush tarzidan oziqlanishini ko'rsatdi: o'zbek matallarida dehqonchilik va maishiy hayot belgilari (qovun, qo'y, cho'p), ingliz matallarida esa dengizchilik, savdo va aniq joy nomlari yetakchilik qiladi. Fikrimizcha, aynan shu obrazlar tizimidagi farq to'liq ekvivalentlikka eng katta to'siqdir. Shuningdek, bir xil obrazning baholash bo'yog'i ham farqlanishi mumkin: masalan, bo'ri obrazi o'zbek matalida kutilmaganlik, ingliz madaniyatida esa shaytoniy kuch tasavvuri bilan bog'lanadi bunday nozik farqlarni, nazarimizda, faqat lingvomadaniy tahlil ochib beradi.

Tahlilimiz natijalari, fikrimizcha, amaliy qiymatga ham ega: matalni tarjima qilishda obrazni so'zma-so'z ko'chirish ma'no buzilishiga olib keladi, shu bois tarjimon avval funksional ma'noni aniqlab, so'ng ma'noviy muqobilni tanlashi lozim; ekvivalentsiz birliklar esa tavsifiy tarjima talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, biz matallar orasida to'liq ekvivalentlar maqollarga qaraganda kamroq uchrashiga ishonch hosil qildik: ekvivalentlik darajasi, asosan, obrazning kelib chiqishiga bog'liq xalqaro obraz to'liq, milliy-maishiy obraz esa qisman yoki lakunar moslik beradi. Bu kuzatishlar, nazarimizda, matalni o'zbek va ingliz paremiologiyasida alohida tadqiq qilish naqadar zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. Москва: Наука, 1988.
2. Mieder W. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004. 304 p.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. 2-е изд., перераб. Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. 381 с.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
6. The Oxford Dictionary of Proverbs / ed. by J. Speake. 6th ed. Oxford: Oxford University Press, 2015. 416 p.
7. Uralova O. P. Ingliz va o'zbek tillarida «oila» bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi: Filol. fan. b-cha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Samarqand, 2021.